

**ICHKI AUDIT XIZMATI: BUDJET MABLAG‘LARINI SAMARALI
BOSHQARISHDA OQIBAT EMAS, SABAB BILAN KURASHISH — BUDJET
MABLAG‘LARINI TEJASHNING ASOSIY OMILLARIDAN BIRI**

Odiljon Hayitov

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi

Ichki audit bo‘limi boshlig‘i,

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Murojaat uchun: odilkru@gmail.com([Tel:97-366-80-08](tel:97-366-80-08))

Annotatsiya. Mazkur tezisda davlat moliyaviy boshqaruvi tizimida ichki audit xizmatining budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif tomonidan ichki auditni faqat aniqlovchi nazorat mexanizmi emas, balki xavflarni oldindan aniqlovchi va ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etishga qaratilgan strategik boshqaruv instrumenti sifatida ko‘rish zarurligi asoslab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-son qarori asosida davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini joriy etishning institutsional mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi misolida xavflarni boshqarish qo‘mitasi faoliyati, xavflar reyestrini shakllantirish, ularni tasniflash hamda choraklik monitoring mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ichki auditni “oqibat bilan emas, sabab bilan kurashish” tamoyili asosida tashkil etish budjet mablag‘larini tejash, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ichki audit, budjet mablag‘lari, xavflarni boshqarish, davlat moliyasi, moliyaviy nazorat, risk-reyestr, davlat boshqaruvi, korrupsiyaviy xavflar, budjet intizomi, samaradorlik.

Hozirgi kunda davlat moliyaviy tizimini samarali boshqarishda ichki audit xizmatining o‘rni tobora ortib bormoqda. Chunki ichki audit nafaqat xato va kamchiliklarni

aniqlash, balki ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish orqali kelgusida ularni oldini olish imkonini yaratadi.

Ichki auditning asosiy vazifasi — tashkilot yoki muassasaning moliyaviy faoliyatini xolis baholash, mablagʻlardan maqsadli va tejamli foydalanishni taʼminlashdir. Bu jarayonda “oqibat bilan kurashish emas, sabab bilan kurashish” tamoyili katta ahamiyatga ega. Chunki faqat oqibatni bartaraf etish muammoni vaqtincha hal etadi, ammo uning sababi aniqlanmasa, u kelgusida yana takrorlanishi mumkin.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida moliyaviy va boshqa xavflarni barvaqt aniqlash, baholash va boshqarishning yaxlit tizimini joriy etish, shuningdek, davlat mablagʻlaridan samarali foydalanish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29 aprelda 279-sonli “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Qarori qabul qilindi.

Qarorda quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi toʻgʻrisidagi nizom:

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash hamda ularning reyestri va monitoringini yuritish;

moliyaviy va boshqa xavflarni kamaytirish (oldini olish, bartaraf etish) boʻyicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

moliyaviy va boshqa xavflarni boshqarish sohasida masʼul xodimlar malakasini oshirib borish;

b) Xavflarni boshqarish qoʻmitasi toʻgʻrisidagi namunaviy nizomi tasdiqlandi.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida Xavflarni boshqarish qoʻmitalarini hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibi;

Xavflarni boshqarish qoʻmitalarining asosiy vazifalari tasdiqlandi.

Qarorda xavflarni boshqarishni tashkil etish yuzasidan eʼtiborli tarafi shundaki, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni boshqarish

maqsadida ularning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosda Xavflarni boshqarish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Qo‘mita) tuzildi.

Qo‘mitaning asosiy vazifasi etib, Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflar reyestrining shakllantirilishi va yangilab borilishi, xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilib ularni kamaytirish (oldini olish, bartaraf etish) yuzasidan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni hamda chora-tadbirlar rejasini atroflicha muhokama qilib borishi hamda shu kabi boshqa dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Qarorning e‘tiborli jihati shundaki, Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidagi nafaqat moliyaviy xavflar, balki o‘z faoliyatlaridagi boshqa xavflar — ya’ni ichki xavflar, korrupsiyaviy xavflar, ma’muriy xavflar, operatsion xavflar, strategik xavflar, tashqi xavflar ham tizimli ravishda baholanishi va ularni kamaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilanishi ko‘zda tutilgan. Bu esa Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni boshqarish madaniyatini shakllantirish, qaror qabul qilish jarayonida tavakkalchiliklarni oldindan baholash va samarali boshqaruvni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, Ichki audit xizmatlari xavflarni boshqarishda:

- aniqlangan xavflarning belgilangan tartibda baholanishini o‘rganish;
- chora-tadbirlar rejasining ishlab chiqilishi va bajarilishi yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazish;
- xavflarni boshqarish jarayoni bilan bog‘liq audit tadbirlarini o‘tkazish hamda har chorak yakuni bo‘yicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilib borish.



Bunda, Ichki audit xizmati xavflarni boshqarish jarayonida aniqlangan kamchilik va xatarlarning o'z vaqtida va to'liq bartaraf etilishi uchun mas'ul hisoblanadi. U xavflarni baholash, ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini nazorat qiladi hamda rahbariyatga xavflar holati bo'yicha haqqoniy va xolis axborot taqdim etib boradi. Shuningdek, ichki audit xizmati tomonidan xavflarni boshqarish tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Shu tarzda, ichki audit xizmati faqat tekshiruvchi organ emas, balki tahlilchi va maslahatchi tizim sifatida faoliyat yuritishi kerak. U xato yoki kamchiliklarning sabablarini aniqlab, rahbariyatga ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar bersa, natijada budjet mablag'larining samaradorligi ortib, davlat budjeti mablag'lari tejaladi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligida ham vazirlikning 2025-yil 3-yanvardagi 1-sonli buyrug'iga asosan "Xavflarni boshqarish qo'mitasi" tashkil etilgan.

Bugungi kunda, vazirlikning 9 ta tarkibiy boshqarma va bo'limlari tomonidan o'z faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jami 38 ta xavf aniqlanib, Qo'mita ishchi organi – Ichki audit bo'limiga taqdim etildi. Ushbu xavflardan 15 tasi "**o'rta**" – darajali xavf deb baholangan bo'lsa, 23 tasi esa "**past**" – darajali xavflar sifatida tasniflangan.

O'z navbatida, "**o'rta**" – darajali baholangan xavflar bo'yicha vazirlik markaziy apparati boshqarma hamda bo'limlari tomonidan har chorak yakuniga qadar xavflarni bartaraf etish yoki minimallashtirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib ijrosi ta'minlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, **ichki audit xizmatini oqibat emas, balki sabab bilan kurashish tamoyili asosida tashkil etish** — bu davlat tashkilotlari faoliyatidagi xavflarni bartaraf etishga qaratilgan dolzarb yondashuv bo‘lib, u nafaqat mablag‘larni tejash va samarali foydalanishga, balki tizimdagi mas’uliyat, shaffoflik va hisobdorlik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ichki auditning samarali faoliyat yuritishi orqali davlat resurslarining maqsadli va oqilona sarflanishi ta’minlanadi, qaror qabul qilish jarayonida ochiqlik va ishonch ortadi. Demak, har bir tashkilotda ichki audit tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi **budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishning asosiy sharti** hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-sonli “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Institute of Internal Auditors (IIA). (2023). *Global Internal Audit Standards*. Altamonte Springs, FL.
4. INTOSAI. (2021). *Guidelines for Internal Control Standards in the Public Sector*. Vienna.
5. OECD. (2020). *Internal Control and Risk Management in Public Governance*. Paris: OECD Publishing.
6. Mihret, D. G., & Grant, B. (2021). The role of internal audit in public sector governance. *Accounting, Auditing & Accountability Journal*, 34(2), 432–460.
7. Arena, M., Arnaboldi, M., & Azzone, G. (2021). Internal audit in public organizations: A systematic review. *Managerial Auditing Journal*, 36(7), 927–950.
8. Cohen, A., & Sayag, G. (2020). The effectiveness of internal auditing: An empirical examination. *Journal of Applied Accounting Research*, 21(2), 201–223.

9. Eulerich, M., & Kalinichenko, O. (2023). Data analytics maturity in internal audit functions. *Managerial Auditing Journal*, 38(3), 372–395.
10. Transparency International. (2023). *Corruption Risks in Public Procurement*.